



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QO‘QON SHAHRIDAGI MAORIF MASALASINING YORITILISHI (“TARJIMON” GAZETASI MATERIALLARI ASOSIDA)

Abdurazzaqov Shaxzodxo‘ja Shokirxo‘ja o‘g‘li
University of Business and Science, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Bog‘chasaroyda jadidchilik g‘oyalarining asoschisi, ma‘rifatparvar Ismoil Gaspirinskiy tomonidan nashr etilgan “Tarjimon” gazetasi materiallari asosida Turkiston o‘lkasida, xususan, Qo‘qon shahrida usuli jadid maktablarining paydo bo‘lishi, ularning faoliyati, o‘qitish tizimlari va boshqa masalalar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida mikrotarixiy, miqdoriy, tizimli, konkret tahlil hamda muammoviy-xronologik usullardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: “millat otasi”, “uchinchi muallim”, “Rushdiy maktab”, “Muhammadiya” maktabi, “Yulduz” gazetasi, “Onisa”, “Iqbol”, Xalil Rahmon Sayfiddinov, Husayn Mirzo To‘nqo‘jiyev, Po‘lodjon Abdulqayyumzoda.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ГОРОДЕ КОКАНДЕ (НА МАТЕРИАЛАХ ГАЗЕТЫ «ТАРДЖИМОН»)

Абдураззаков Шахзодходжа Шокирходжа угли
University of Business and Science, базовый докторант

Аннотация

В статье на основе материалов газеты «Тарджимон», издаваемой в Бахчисарае основателем идей джадидизма, просветителем Исмаилом Гаспринским, освещаются вопросы возникновения джадидских школ нового метода в Туркестане, в частности в городе Коканде, их деятельность, система обучения и другие аспекты. В ходе исследования использованы микроисторический, количественный, системный, конкретно-аналитический и проблемно-хронологический методы.

Ключевые слова: «отец нации», «третий учитель», «рушдийская школа», школа «Мухаммадия», газета «Юлдуз», «Ониса», «Икбол», Халил Рахмон Сайфиддинов, Хусайн Мирзо Тункоджиев, Полодзон Абдулкаюмовзода.

COVERAGE OF THE ISSUE OF PUBLIC EDUCATION IN THE CITY OF KOKAND (BASED ON MATERIALS FROM THE NEWSPAPER “TARJIMON”)

Abdurazzaqov Shakhzodkhoja Shokirkhoja ogli
University of Business and Science, Basic Doctoral Student

Abstract

This article, based on materials from the newspaper “Tarjimon” published in Bakhchisarai by the founder of Jadidism, the enlightener Ismail Gasprinsky, examines the emergence of Jadid (new-method) schools in Turkestan, particularly in the city of Kokand, as well as their activities, teaching systems, and related issues. The study employs microhistorical, quantitative, systemic, concrete-analytical, and problem-chronological research methods.

Keywords: “father of the nation,” “third teacher,” “Rushdi school,” “Muhammadiya” school, “Yulduz” newspaper, “Onisa,” “Iqbol,” Khalil Rahmon Sayfiddinov, Husayn Mirzo Tunkodjiyev, Polodjon Abdulqayyumzoda.

“Tarjimon” Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy-musulmon xalqlarning dastlabki bosma nashrlaridan biridir. U turkiy-musulmon xalqlar orasida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatishda muhim rol o‘ynagan. “Tarjimon” gazetasi 1883–1917-yillarda Bog‘chasaroyda nashr etilgan bo‘lib, uning asoschisi mashhur ma‘rifatparvar, turk-musulmon olamining “uchinchi

muallimi” Ismoilbek G‘asprinskiy (1851–1914) hisoblanadi. “Tarjimon” gazetasi Rossiya imperiyasidagi turk-musulmon xalqlariga ma’rifat tarqatuvchi nashr sifatida 1883–1917-yillar oralig‘ida chop etilgan. Dastlabki yillarda haftada bir marta, 1903-yildan ikki marta, 1905-yildan uch marta chop etilgan bo‘lsa, 1912-yildan boshlab kundalik gazetaga aylangan.

“Tarjimon” gazetasini tahlil qilish asnosida shunga ishonch hosil qilish mumkinki, uning sahifalarida musulmon xalqlarining, shuningdek, Turkiston tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati va maorifi masalalariga keng o‘rin ajratilgan. I. G‘asprinskiy “Tarjimon” gazetasi orqali xalq orasidan uning yo‘lboshchilari — intelligensiya, ziyolilar sinfini yuzaga chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. I. G‘asprinskiy “Tarjimon”da ziyolilarni millat boshiga qo‘yadi va ularni “millat otasi” deb ataydi. Shuningdek, turkistonlik taraqqiyparvarlar ham “Tarjimon” gazetasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, ular tomonidan yuborilgan maqolalar gazetada muntazam chop etib borilgan.

Mazkur maqolada “Tarjimon” gazetasi sahifalarida chop etilgan maqolalar Turkistonda maorif masalasini xolis yoritganligi, unga Turkiston aholisi manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashib baho berilganligi hamda Qo‘qon shahridagi maktablarning tashkil etilishi va faoliyatiga doir muhim masalalar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turkiston tarixini yoritishda “Tarjimon” gazetasi manba sifatida deyarli tadqiq qilinmagan. Ushbu tadqiqotlar ichida Z. Abdurashidovning ilmiy izlanishlarini alohida e’tirof etish joizdir. Z. Abdurashidovning “Tarjimon” gazetasi bibliografiyasini tuzishdagi mehnatlari beqiyos ahamiyatga ega. Ammo bu tadqiqot ishida “Tarjimon” gazetasi sahifalarida yoritilgan maqolalar ichidagi ayrim yo‘nalishlar alohida tahlil etilmagan. Ushbu maqolada Turkistonning Chor imperiyasi mustamlakasi davridagi Qo‘qondagi milliy maorif masalalari “Tarjimon” gazetasi maqolalari asosida yoritilgan. Mazkur maqolada keltirilgan ilmiy dalillar va tarixiy ma’lumotlar tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida mikrotarix, miqdoriy, tizimli, konkret tahlil va muammoviy-xronologik usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

“Tarjimon” gazetasida yozilishicha, Qo‘qon shahridagi birinchi jadid maktabi 1893-yilda ochilgan. Qo‘qonlik Husayn mirzo To‘nqojiyev tomonidan “Tarjimon” gazetasiga yozilgan maktubda: “... yerli no‘g‘oy mullolaridan Sharafiddin afandi Abdunofi o‘g‘li usul jadida uzra dars bermiya mubosharat qildi. Shahrimizda bu birinchi tajribadir. Inshaalloh, soir yerlarda o‘ldig‘i kabi oz vaqtda rivoj bo‘lur”, — deya qayd qilingan [1]. Mazkur maktab unchalik rivoj topmagan va mashhur bo‘lib ketmagan bo‘lsa-da, nafaqat Qo‘qon shahri, balki butun Farg‘ona vodiysidagi birinchi jadid maktabi hisoblanadi. Shuningdek, u jadid maktablarining ko‘plab ochilishiga dastlabki qadam bo‘lgan, desak, aslo adashmagan bo‘lamiz.

“Tarjimon” gazetasining xabar berishicha, 1895-yilda Qo‘qon, Samarqand va Qarmoqchi shaharlarida yerli musulmon bolalari uchun rus tili maktabi ta’sis etiladi [2]. Yana bir maqolada bu shaharlarda yangi ochiladigan rus maktablari haqida: “Sirdaryo viloyatida Qarmoqchi qasbasida Xo‘qand va Samarqand shaharlarida musulmon avlodi uchun bir rus maktabi ta’sisina qaror verildi. Bu maktablarning har biri 20 odamlilik o‘lub, o‘quyonlarga xazinadan yotoq, osh va kiyum verilajakdir”, — deya qayd etilgan [3].

Ushbu maktabning tashkil etilishi, unda ta’lim oladiganlarga xazinadan yotoq, ovqat va kiyim-bosh uchun mablag‘ ajratilishidan ko‘zlangan asosiy maqsadni musulmon xalqlarga rus tili va madaniyatini hukumat tomonidan yoyishga qaratilgan sa’y-harakat sifatida baholash mumkin.

1902-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi” yozilishicha, muallimlar majlisida Qrim va Qozon tatarlari tomonidan nashr etilgan usuli savtiya darsliklarini o‘zbek muallimlariga berish munosib ko‘riladi. Bu voqea juda yaxshi edi. Lekin Qo‘qon shahridan “Tarjimon” gazetasiga yuborilgan maktubda Qo‘qon shahridagi tatar muallimlari va ba’zi mahalliy muallimlar usuli savtiya va jadid maktablariga hukumat tomonidan taftishlar kuchayganligi, muallim afandilar o‘quvchilarga ta’lim berishga qo‘rqishayotganligi haqida: “Dars vermak o‘g‘irliq kabi, yomonliq

kabidir”, deya yozilgan [4].

Tadqiqotchi A. Isoqboyevning yozishicha, 1897-yilga kelib olingan maxfiy ma'lumotlarga ko'ra, Turkiston o'lkasi tasarrufidagi viloyatlarda tatar muallim va muallimalari tomonidan hukumat ruxsatisiz maktablar ochilayotgani ma'lum bo'lgan. Bu masalani batafsil o'rganish maqsadida Turkiston o'quv yurtlari boshqarmasi viloyatlardagi harbiy gubernatorlarga maxsus xat yozib, o'z hududlarida faoliyat yuritayotgan tatar muallimlari haqida ma'lumot berishni so'ragan. 1898-yil 29-yanvarda Qo'qon uyezdi boshlig'i tomonidan yuborilgan javob xatida Qo'qon shahrida Ufa guberniyasidan kelgan tatar muallimi Muhammad Shokir Sulaymonov 7 nafar o'zbek bolasini o'z uyida o'qitayotganligi aniqlangan [5].

1906-yilda qo'qonlik Yunus mirzo Idris o'g'lining “Tarjimon” gazetasiga yozishicha, qo'qonlik mashhur boylardan Hoji Muhammad Olimboy himmati bilan ochilgan usuli jadid maktabida imtihon o'tkazilib, unda 300 nafar bola ishtirok etgan. Mazkur maktab muallimi Penza guberniyasidan kelgan Habibillo afandi hisoblanadi [6].

1906-yil 3-iyunda Qo'qonning Hojibek mahallasida qo'qonlik muallim Xalil Rahmon Sayfiddinovning usuli savtiya maktabida bo'lib o'tgan imtihon haqida “Tarjimon” gazetasi sahifalarida: “... iyun 3inchi sanasinda Xo'qandning Hojibek mahallasida Xo'qandli muallim Xalil Rahmon Sayfiddinovning usuli savtiya maktabinda ikki yuza qariyb bololar imtihon edilub hisob, jug'ofiya, qiroat, tarix fanlarinda ziyoda mahorat ko'rsatmalari hozir bo'lnon uchuyuzdan ziyoda jamoating ziyodaja diqqatlarini jalb edarak favqulodda misrat va tashakkurlarina bois o'lmish va maktabing bonilari ila muallim afandiya duolar o'linmishdir. Tabrik edariz”, — deya qayd etilgan [7].

Bu maktabning qachon ochilganini tahlil qiladigan bo'lsak, o'zini “Xo'qand kishisi” deb qayd etgan muallif “Tarjimon” gazetasiga yozgan maqolasida 1903-yilda Qo'qonning himmatli boylaridan mulla Abdurazzoq afandi o'z kissayi himmatidan Qo'qonning Hojibek mahallasida bir maktab qurdirib, usuli savtiya o'qitish uchun Rossiyadan Xalil Rahmon Sayfiddinovni muallimlikka jalb qilganini yozadi. Shu yo'sinda Abdurazzoq afandi ushbu maktabni yangidan ta'mir ettirib, muallim Xalil Rahmon Sayfiddinovga bir yordamchi tayin qilishi, rushdiy maktabi ochilishi va maktab hujrasini kutubxonaga aylantirishini bildiradi. U maqolasida Abdurazzoq afandiga “Alloh maqsadlarina muvofiq qilub, imsollarini ortdirdsun deb duolar qilub xidmatlarina oyruja tashakkurlar edariz” [8], — deya o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

Bu maktab ta'miri bo'yicha muallim Xalil Rahmon Sayfiddinovning “Tarjimon” gazetasi muharririga yozgan maktubida Abdurazzoq afandi Ziyoyev tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanganligi haqida 114-sonda xabar berilgani, mazkur maktab ta'miri tezda yakunlanishi, bu ishlarda g'ayrat va shijoat ko'rsatgan Miyon G'ani hazrat bilan Abdurazzoq afandilarga alohida tashakkurlar izhor etgani qayd etilgan [9].

Demak, Qo'qonning Hojibek mahallasidagi muallim Xalil Rahmon Sayfiddinovning usuli savtiya maktabi Abdurazzoq afandi Ziyoyevning himmati bilan ochilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning ta'mirida Qo'qon boylaridan Miyon G'ani ismli kishining ham sa'y-harakatlari tufayli Qo'qonda kattagina bir usuli savtiya maktabi barpo etilganiga guvoh bo'lamiz.

Muhammad Voqif bin Nuriddin al-Hiloliyning Xalil Rahmon Sayfiddinov maktabi haqida Ismoil G'asprinskiyga yozgan maktubida: “Xalil Rahmon Sayfiddinovning maktablarini ziyorat qildim. Asli meni maqsadim madrasalarning nizomini va intizomini o'rganish edi. Maktabda 100 nafar bola o'qir ekan. Darslarni kuzatishim asnosida maktabda tahsil olayotgan shogirdlarni imtihon qilub ko'rdim, go'zal tarzda javob berishdi. Qur'on, tajvid darsini mukammal darajada o'qishlari bilan bir qatorda, jug'rofiya, tarix, hisob darslariga yuqori darajada ahamiyat berishlarini guvohi bo'ldim. Imlo va xusnixatlaridan bir qusur ko'rmadim. 3-boshlang'ich sinf o'quvchilarining arabchada ravon so'zlashlarini ko'rib bag'oyatda mamnun bo'ldim”, — deb yozadi [10].

“Tarjimon” gazetasining yozishicha, Qo'qon shahrida 1909-yilda 10 ta usuli jadid maktabi mavjud bo'lib, ularning 4–5 tasi Rossiyadan kelgan musulmon tatarlarga, qolganlari esa

mahalliy ziyolilarga tegishli bo'lgan [11].

Qo'qon shahridagi usuli jadida maktabi muallimi bo'lgan Islom hoji Mir Husayn Mirrahimov 1909-yil sentabr oyida "Tarjimon" gazetasiga maktub yuborib, unda yangi usul o'qitishni isloh qilish, turkiy-musulmon xalqlari alifbosidagi 10 harfni isloh qilish bo'yicha taklif yuboradi. Bunga bir qancha sabablarni keltirib o'tadi. Birinchisi, bu ravishda o'qish va yozishni o'rganish uchun ikki oy vaqt ketishini aytadi. Ikkinchisi, eski usulda o'qitishda bolalarga bir harfni ikki yoki uch harakat bilan ifoda qilish qiyinchilik tug'dirishi edi. Masalan, a, i, u harflari alif bilan birga yozilganda, o'qishda hijjalashga to'g'ri kelayotganini bildirgan. Uchinchisi, eski qiroat usulida hech bir bahs va munozaraga hojat yo'qligi. To'rtinchisi, bunday o'qitish Qur'on tilovati uchungina kifoya qilishi. Beshinchisi, eski harflar orqali ta'lim berilsa, o'qishda juda rasvo tabdil yozilishi. Oltinchisi, nun tanvin va harf maddalar, harakat va sukun, nuqtalar noto'g'ri joyda joylashishi. Ilova qilingan 10 harf va alomatlarini o'rganishga 3-5 kun vaqt sarflanishini inobatga olgan holda, agar mazkur 10 harf isloh qilinsa, o'qishni o'rganish yanada osonlashishi haqida o'z taklifini yuborgan [12].

"Tarjimon" gazetasi tahririyati bu maktubga javoban Islom hoji Mir Husayn Mirrahimovning takliflarini chuqur o'rganib chiqib, unga munosabat bildirishini ma'lum qilgan [13].

1909-yilda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari inspeksiyasi qoshidagi maxsus komissiya yangi usul maktablari faoliyatiga doir farmoyish chiqargan [14]. Unga ko'ra, maktablar faqat mahalliy ma'muriyatning maxsus ruxsatnomasi bilan ochilishi, maktablarni ochish va unda o'qitish siyosiy jihatdan to'la ishonchli bo'lgan Rossiya fuqarolarigagina ruxsat etilishi, maktab qaysi millat bolalari uchun ochiladigan bo'lsa, uning o'qituvchilari ham o'sha millatga mansub bo'lishi shartligi, maktablarda faqat Rossiya senzurasining ruxsati bilan chop etilgan kitoblar o'qitilishi mumkinligi, ma'muriy politsiya idoralarida ishlovchi mas'ullar zimmasiga barcha mahalliy musulmon maktablarini aniq ro'yxatga olib borish va ro'yxatdan o'tmagan maktablarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik, maxsus ruxsatsiz maktab ochgan shaxslarni maktab ochish va o'qituvchilik qilish huquqidan mahrum qilish, mahalliy maktablarda o'qitish ishlari va ularga joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilib turish mahalliy ma'murlar hamda maktab nozirlari zimmasiga yuklatilishi kabi bandlar mavjud edi [15].

Mana shu farmoyishdan so'ng Turkiston o'lkasining barcha hududlarida tatar muallimlari tomonidan mahalliy aholi bolalarini o'qitishga chek qo'yila boshladi. Turkistondagi mazkur holat "Tarjimon" gazetasida alohida mavzu sifatida muhokama qilinadi.

1910-yil 20-iyunda Qo'qon shahridagi Salohiddin Mazidov maktabida sinov imtihoni yuqori saviyada o'tkazilgan. Mazkur maktab nafaqat Qo'qon shahri, balki butun Turkistonda juda mashhur bo'lgan. "Yulduz" gazetasi muhbiri bu voqeani quyidagicha yozadi: "Imtihon tamom bo'lganidan so'ng pristav tatar muallimlarini huzuriga chaqirib: "Tatar muallimlarining Turkistonda o'qituvchilik qilishga ruxsatnomalari yo'qligi uchun, binoyi oliya, siz bu kundan boshlab maktabingizni yopingiz", deya Turkiston o'quv yurtlari inspeksiyasi qoshidagi maxsus komissiya farmoyishiga binoan Turkiston bolalarini o'qitishlari mumkin emasligini tushuntirib, maktabni yopishni buyurgan. Muallimlar bunga o'z noroziliklarini bildirishgan. Bundan xabar topgan musulmon bolalarining otalari uyezd pristaviga buning sababini so'rab murojaat qilganida, pristav: "Man yop demadim, men maktabda nima o'qitayotganlar ekan, deya taftish etdim", deb, ikkinchi kuni esa: "Maktab yopilishi xatolik bilan aytilganiga iqror bo'ldim", deya maktabni yopish haqida ko'rsatma bermaganini aytgan. "Tarjimon" gazetasining yozishicha, ayni shu vaqtda Qo'qon shahrida 15 dan ortiq usuli jadid maktabi mavjud bo'lib, ulardan Salohiddin Mazidov va Shokir Muxtorovlarning maktablari juda mashhur bo'lgani bilan bir qatorda muntazam tarzda ishlab turgan edi [16].

1909-yilda chiqarilgan Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari inspeksiyasi qoshidagi maxsus komissiyaning yangi usul maktablari faoliyatiga doir farmoyishiga asoslanib, 1910-yilning yoz oylarida ma'muriyat tomonidan o'lkadagi tatar maktablarini yopish bo'yicha ommaviy harakatlar

bo'lgan. Aholining jiddiy qarshiligi sababli bu biroz ortga surilgan. "Tarjimon" gazetasining 1910-yil noyabr oyida bergan xabariga ko'ra, "Xo'qandda musulmon maktablari taftish o'linub, sort maktablarida muallimlik etan tatar muallimlarga "Sizning burada muallimlik etmaya haqqingiz yo'q", deyilinish" [17], — deya qayd qilingan.

Yuqoridagi xabarlar o'z tasdig'ini topgach, Qo'qon pristavi shahardagi usuli jadid maktablari muallimlarini bir joyga to'plab, "O'blostnoy inspektor amri ila 1-yanvardan e'tiboran maktablaringizni yopajaqingiz" haqida ularni ogohlantiradi. Bu xabarni eshitganliklarini tasdiqlash maqsadida imzo qo'ydirib oladi. Bu voqeadan norozi bo'lgan 15 nafar mahalliy savdogar Qo'qon birja komiteti zalida ushbu masala yuzasidan takror va takror maslahatlashganlaridan so'ng, bu masalaga izoh so'rash uchun advokat orqali Toshkentga, markaziy hukumatga murojaat qilganlar. Ushbu masalaga munosabat bildirgan "Tarjimon" gazetasi: "Bu ish usul savtiya va tartibga qarshu dakil, no'g'oy, ya'ni tatar muallimlariga qarshi bir tadbir o'lsa kerakdir", — deya qayd qilgan. Nizom va qonunga e'tiboran qararak, Rossiya tab'asi bo'lgan musulmonlarning imperiyaning har tarafida ishlashi, tijorat qilishi, o'qishi va o'qitishi singari faoliyatlar bilan shug'ullanishga to'la haqli ekanini bildirgan. Turkistonda maktablar va madrasalar maorif inspeksiyasi nazoratida bo'lib, agar yopilgan maktablarda bolalar qayd etilsa, bunga rasmiy ruxsat talab etilgan. Maktablarga qo'yilgan bu taqiqlar Turkiston o'lka ma'muriyatining tatar muallimlari faoliyatini cheklash uchun vaqtinchalik chora-tadbir ekanligi, Qo'qon boylarining bu himmatlari ulkan tahsinga sazovor ekanligi ta'kidlangan [18].

Turkiston o'lkasida tatar muallimlari tomonidan ochilgan usuli jadid maktablari faoliyatini cheklash siyosati Ismoilbek G'asprinskiyni ham e'tiborsiz qoldirmagan. Ismoil G'aspirinskiy: "Maorif inspektorlarining hujumi maktaba yoki usul savtiyaga qarshu o'lmuyub, onjiq "Rusiyadan Turkistona kelmish muallimlarga qarshi" o'ldig'i onglashildi. Mas'alaya shu nuqtadan nazar etmak lozim keliyur", — degan fikrni ilgari surgan. Ismoil G'aspirinskiy "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Rossiya va Kavkazdan kelgan musulmonlarning Turkiston o'lkasidan ko'chmas mulk va yer sotib olish huquqidan mahrum qilingani, bunday taqiqlar rusiyalik nemis, polyak, arman, gruzinlarga qo'yilmaganiga, musulmonlar bilan yahudiylar esa bu huquqlardan mahrum etilganiga alohida e'tibor qaratgan. U "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomdagi ushbu moddani rusiyali musulmonlar bo'lgan tatarlarning (mahalliy aholi ta'biricha no'g'oylarning) Turkistonda muqim o'rnashib olishlarini oldini olishga qaratilgan, deya izohlagan [19].

"Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomni milliy masala bo'yicha tahlil qilish asnosida, yerli musulmon xalqlari orasida muhim masalalar xalq sudlari, ya'ni qozixonalar orqali hal etilishi, Turkistonda qirg'iz, qozoq yoki musulmon tatarlar orasida shunday masalaga duch kelinganida esa, shariat qoidalari bo'yicha qozixonaga murojaat etmay, rus qonunlari asosida hal etilishi qayd etilgan. I. G'aspirinskiy buni mohiyatini izohlab: "Bu qoidaning hukumati qirg'izlarga va rusiyali tatar no'g'oylarga eng dekarindan tafriq etmak ila biri birina boshqa o'ldiqlarini ko'rsatmakdir", — deya ta'kidlagan. Eski qonun chiqaruvchilarning bu qarashlari xato bo'lganligi sababli, Rossiya imperiyasi qonunlari imperiya hududida yashovchi barcha musulmonlar uchun bir xilda amal qilishi va ularni isloh qilish bo'yicha Peterburgda ochilgan yangi nizom komissiyasiga murojaat qilishgan. Maktab masalasida aholi va muallimlarning e'tibori ikki jihatga qaratilgan. Birinchisi, Rossiya musulmonlari uchun ijara, tijorat, mardikorlik va ta'lim masalasi. Ikkinchisi, ibtidoiy maktablar va rusiyalik muallimlar osoyishtalikni ta'minlash maqsadida mahalliy idoralarga ba'zi qoidalarni chiqarishda muxtoriyat berish zarurligi haqidagi masala. "Binoi oliya Xo'qand maktablarindan o'tari huquq ibodi muhofaza va ta'min etmak uchun yuqoru buyuk hukumata murojaat etmak farizai hol va maishatdir" [20], — deya qayd qilingan. Bu masalalarni hal etish uchun Qo'qondagi musulmonlar uyushib, Turkiston general-gubernatoriga va Rossiya Davlat dumasiga murojaat etishlarini bildirganlar. Peterburgga mahalliy aholi o'z vakillarini yuborishida yo'l harajatlarini uchun mablag' jamg'arish lozimligi haqida tavsiya bergan. Bu masala yuzasidan mablag' jamg'arish savobli ish ekanini ta'kidlab: "...

huquq ibodiyiyo yo'linda oqcha to'kmak Hijoz yo'linda sarf etmak kabidir", — degan.

I. G'aspirinskiy Turkistonning maktab ishlaridan muhimroq ishlari borligi, graf Palenning taftishnomasi muhokamaga qo'yilib, Turkiston uchun yangi nizom tartibi zarurligini, bu ishlarni amalga oshirish yo'llarini yaxshiroq o'rganish, Turkiston no'g'oylari (tatarlari)ning Turkistonlik musulmonlar bilan teng huquqli bo'lishga haqli ekanini, buning uchun kurashish lozimligini alohida ta'kidlagan [21].

"Tarjimon" gazetasi 1913-yilning bahorida Qo'qon shahrida qozi Kamoliddin afandining mablag'i bilan shaharda usuli jadida maktabi uchun ikki qavatli binoning qurilishiga rasman tamal toshi qo'yilib, bino qurilishi boshlanganini ma'lum qilgan [22].

Bu maktab haqida qo'qonlik F. Abdulqayumovning "Tarjimon" gazetasiga xabar berishicha, mulla Mahmudjon qorining usuli jadid maktabi juda eskirib, ta'mirtalab holga kelib qolganligi uchun shu yilning qishida mahalliy inspektor tomonidan yopib qo'yilgan edi. Mazkur maktabni qaytadan ta'mirlash uchun shahar qozisi Kamoliddin afandi tomonidan 7 ming rubl mablag' ajratilib, maktabga ikki qavatli bino qurish ishlari boshlanganligini izohlab: "Tujjorlarimiz ham bu kabi maorifsevar ulamomizdan ibrat olsalar edi", — deya qozi afandiga tashakkur bildirgan. Undan tashqari, shu yili Qo'qon shahrida "Muhammadiya" deb nomlangan yangi islomiy maktab ham o'z faoliyatini boshlagan [23].

Bunga javoban "Tarjimon" gazetasi olqishlab: "Domla Kamoliddin afandining himmatina "Borakallo!" deriz. Undan kelan ulamomizning ham qulon va hamda falon millata xizmat ko'rsatmasi taraqqiy yo'llarini ham yaqin qilajaqdir. Na baxtlidir bo'yla mullalara holik o'lon millat va jamoat!", — deya ulug'lagan.

Qo'qon shahridagi "Muhammadiya" deb nomlangan yangi islomiy maktabning ochilganini izohlab: "Xo'qandda yangi usul uzarina ochilmish "Muhammadiya" maktabining 9 moddali e'lomnomasi idoramiza keldi. Bu e'lomnomaga boqilrsa maktabning muassasalarida omirqon g'ayrati vorlig'i ko'rinmaktadir, tabrik edariz", — deya qayd qilingan [24].

Qo'qonlik muxbir Mir A'zam Ibrohimovning "Tarjimon" gazetasiga yozgan maktubida 1913-yil 17-mayda Qo'qon shahrining Beshariq mahallasida xalifa Solih xonaqosida ochilgan muallim Po'lodjon Abdulqayyumzodaning usuli jadid maktabida bo'lib o'tgan imtihonda shaharning ko'plab a'yonlari, 100 ga yaqin ulamolari ishtirok etgani haqida qiziqarli ma'lumotlar qayd qilingan. Shu bilan birgalikda, shahar qozisi domla Kamoliddin afandi tomonidan qurilishi boshlangan ikki qavatli maktab bitkazilib, "Kamoliya" nomi bilan faoliyatini boshlagani haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, Kamoliddin afandi tomonidan xaroba holatiga kelib qolgan Aminjonboy madrasasi qayta ta'mirlanib, shu madrasaning bir qismida "Rushdiy maktab" tashkil qilingan. Qayd qilinishicha, qozi afandi bu xayrli ishlarga 50–60 ming rubl xarajat qilgan. Kamoliddin afandining bu himmatiga muxbir M. Ibrohimov: "Bizim mamlakatimizda minal qadim har sinf o'z g'araz shaxsiyasi ila bari barini ko'rmamakda ekon, shamdi ulamomizdan bo'yla oliy himmat bir janobning zuhur etdiki, umum aholiya hushnud etdi... Aholi qozi janoblarindan hushnuddirmiz", — deya o'z minnatdorchiligini izhor etgan [25].

"Tarjimon" gazetasiga Qo'qon shahridan 1913-yil 1-iyun sanasida "Qishloqi" taxallusi bilan yuborilgan "Xo'qandda imtihon munosabatila" nomli maqolada dunyoni ilm-ma'rifatdan ortda qolgan millatlar bu soha yuqori darajada rivojlanganlariga tobe bo'lishi haqidagi fikr yuritilib, muallif Turkiston xalqining hazrat Nuh zamonida qanday bo'lsa, XIX asrda ham hech rivojlanmaganidan taajjublanadi. U Qo'qondagi milliy uyg'onishni boshlab bergan vaziyatga alohida to'xtalib: "... hamd o'lsun XX asrning ta'siridanmi, "Tarjimon"ning ijti hodidanmi, har nadan esada 1900 sanasi ibtidosidanda turk qardoshlarimiz tarafidan Xo'qandda birinchi o'laroq usuli savtiya maktabi ochilmishdi" [26], — deya qayd qilib, Qo'qonda ochilgan yangi usul maktablarining 1910-yilga kelib hukumat tomonidan ta'qib ostiga olinib yopilishidan chuqur qayg'uda ekanini yozgan.

Muallifning Turkiston o'lkasida ilmi insonlar kam bo'lishiga qaramay, buni chorasi sifatida imperiyaning boshqa shaharlariga yerli musulmon aholi yoshlarini o'qishga

yuborilmayotganidan xavotir olib: “Turkistonda har jihatcha munavvara va ma’lumot sohibi zotlarning qahat o’ldig’i har kasa ma’lum esada, tadorikina tashabbus edilmadi, chorasina boqilmadi. Buning uchun Rusiyaning digar shaharlarina talaba ko’ndarilmadi”, — deya ta’kidlagan.

Muallif shu yilning 27-may kuni Qo’qon shahrida faoliyat yuritayotgan “Maktabi vahobiya” nomli usuli jadid maktabida imtihon o’tkazilib, o’quvchilar yaxshi javob berganini, yuqori darajada savodli bo’lganliklarini qayd qilgan. O’quvchilarning juda yaxshi savodi chiqqanligini izohlab, imtihonda qatnashayotgan o’quvchilardan biri nutq so’zlab, boshlang’ich maktabdan so’ng rushdiy maktabiga kirib, bilimni yanada orttirmoqchi ekanini aytgan, muallim afandilarning xizmatlarini yuksak baholagan. Imtihonda ishtirok etgan Sadridin afandi tomonidan g’ishtli maktab binosi qurishga, qozi Kamoliddin afandi tomonidan esa rushdiy maktab binosini qurishga va’da berilganidan mamnuniyat bilan yozib: “Xudo bunlarning imsolini ziyoda etsun”, — deya duo qilgan. Imtihonda ishtirok etgan mulla Fayzillo ismli bir mudarris bu maktablarga e’tiroz bildirib, imtihondan ketib qolganini qayd qilgan [27].

“Tarjimon” gazetasining yozishicha, 1914-yilda Turkistonda sayohatda bo’lgan Muhammad Said afandining “Iqbol” sahifalariga yozgan so’nggi maqolasi Turkistonda, xususan, Farg’ona vodiysidagi maktablarga oid qimmatli ma’lumotlar taqdim etgan. Muhammad Said afandi “Iqbol” sahifalariga yozgan maqolasida Farg’ona vodiysidagi maktablar haqida to’xtalib: “Farg’onada maktablar yildan-yila ortmoqdadir. Yolg’iz Xo’qandda 23 dona usuli savtiya maktabi vor... Har holda usul savtiyaga istak vor”, — deya qayd qilgan. Bu maktablarda usuli savtiya bilan o’qitadigan muallimlar bo’lmasa-da, Qozon va Kavkazdan kelgan muallimlardan ko’rib o’rganishgan. Muallifning yozishicha, qozi Kamoliddin afandi tomonidan yangi maktab qurilib, faoliyatini boshlaganligiga to’xtalib: “Ashob xayratdan Kamol qozi 3 ming rubla sarfila mazkur yozorida go’zal bir maktab bino etdirmish, bunda tartib va nizoma muhtoj bo’linyur”, — deya qozi afandiga minnatdorchilik bildirgan. Shuningdek, Qo’qon shahrida bu maktablardan tashqari, Nazir afandi, Tojiddin boy, Yog’ bozordagi Po’lotboy, Rahmon hoji, Mirzohid va Yunusxon hoji, Aminjon boy bacha afandilar tomonidan ham usul jadid maktablari ochilgan. Bu maktablarning har biri ikki qoida asosida ta’sis etilgan. Bu maktablarda o’quvchilarga usul jadid asosida ta’lim berilgan. Muallif yangi usul maktablariga “aholi orasida usul savtiyaga rag’bat kuchayganligi, faqat muallimlar masalasi isloh qilishga muhtojligini”, — qayd qilgan [28].

“Tarjimon” gazetasi ushbu maqolaga munosabat bildirib yuborgan javob xatida: “Ot bo’lunur, maydon bo’lunmas; maydon bo’lunur, ot bo’lunmas” derlar. Turkistonda maydon vor, lekin mohir muallimlar yo’q”, — deya Turkistonda usuli savtiya o’qitadigan muallimlar yetishmasligidan qayg’uda ekanini yozgan. Buning yechimi sifatida Orenburg, Qozon va Bog’chasaroy shaharlariga muallimlarni 2–3 haftaga o’qishga yuborish kerakligini aytgan. Bu ish bilan bir maktab orqali boshqa maktablar muallimlarini ham qayta o’qitish mumkinligini va usuli savtiya o’qitadigan maktablar ko’payishini ta’kidlagan [29].

“Onisa” taxallusi bilan “Tarjimon” gazetasiga yozilgan maktubda Qo’qon shahrida ochilgan boshlang’ich maktab o’quvchilari Ismoilbek G’aspirinskiyning vafot etganidan chuqur qayg’uda ekanliklarini yozib: “Ey buyuk ustoz! Allohning rahmatinda o’lsang”, — deya uning haqqiga duo qilishgan [30].

“Tarjimon” gazetasining yozishicha, 1916-yilda Qo’qon shahrida 4 nafar muallimdan iborat bir yangi usul maktabi ochilgan. Bu maktab Hirot tatarlarining yordami bilan ochilgan. Bu maktabda asosan xotin-qizlar o’qitilgan. Qo’qonlik ayollar o’z xohishlari bilan maktablar rivoji uchun qimmatbaho buyumlarini usul jadid maktablari uchun mablag’ jamg’arishga bag’ishlashgan. Faqat shahar boshlig’ining jamg’arilgan mablag’ni musodara etgani ushbu xayrli ishning to’xtab qolishiga sabab bo’lgan [31].

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni qayd qilish joizki, “Tarjimon” gazetasini tahlil qilish asnosida Qo’qon shahri nafaqat Farg’ona vodiysi, balki butun Turkiston o’lkasining boshqa shaharlaridagi

yangi usul maktablari faoliyatiga, balki jadidchilik g'oyalarning o'zlarining boshqa hududlariga tarqalishida ham muhim markazlardan biri bo'lganligini alohida e'tirof etish kerak. Gazetada maktablar faoliyati bilan bog'liq turli masalalar yoritib borilgan, ularning yutuqlari e'tirof etilgan. O'lkada ma'rifatparvarlikning rivojlanishi uchun yangicha fikrlovchi shaxslar faoliyatiga yuqori baho berilgan va sharaflangan. "Tarjimon" gazetasi va Turkiston jadidlarining o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rganish va uning hali ochilmagan qirralarini tadqiq qilish Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xo'qanddan maktub // Tarjimon. — 1893. — 14-avgust.
2. Axbori doxiliya // Tarjimon. — 1895. — 23-aprel.
3. Axbori doxiliya // Tarjimon. — 1895. — 13-avgust.
4. O'rta Oziyo // Tarjimon. — 1902. — 31-may.
5. Isoqboyev A. Farg'ona vodiysida yangi usul maktablarini tashkil etishdagi hamkorlik aloqalari tarixidan // Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. — Farg'ona, 2012. — № 2. — B. 196–197.
6. Yunus mirzo Idris o'g'li. Turli havodis. "Xo'qanddan" // Tarjimon. — 1906. — 4-avgust.
7. Xo'qand // Tarjimon. — 1906. — 21-iyun.
8. Xo'qand kishisi. Biza yoziyurlar: "Xo'qanddan" // Tarjimon. — 1906. — 9-oktabr.
9. Idoraya maktublar. "Xo'qanddan" // Tarjimon. — 1906. — 22-dekabr.
10. Idoraya maktublar. "Xo'qanddan" // Tarjimon. — 1907. — 7-mart.
11. Vaqt. Milliy g'azetalarimizdan // Tarjimon. — 1909. — 28-avgust.
12. Islom hoji Mir Husayn Mirrahimuf. Qush qonod ila uchar. "Xo'qanddan" // Tarjimon. — 1909. — 25-sentabr.
13. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. — T.: Universitet, 2006. — B. 21.
14. Isoqboyev A. Tarjimon gazetasi sahifalarida Farg'ona viloyatidagi yangi usul maktablari faoliyatining yoritilishi // Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. — Namangan, 2022. — B. 219.
15. Milliy hol va maishat // Tarjimon. — 1910. — 16-iyul.
16. Milliy maishat // Tarjimon. — 1910. — 19-noyabr.
17. Milliy maishat. Xo'qand // Tarjimon. — 1911. — 14-yanvar.
18. Xo'qand va Turkiston maktablari // Tarjimon. — 1911. — 21-yanvar.
19. Milliy maishat // Tarjimon. — 1913. — 29-mart.
20. Qayumov F. Idoraya maktub. Xo'qanddan // Tarjimon. — 1913. — 26-aprel.
21. Mir A'zam Ibrohimov. Xo'qanddan maktub // Tarjimon. — 1913. — 11-iyun.
22. Qishloqi. Xo'qandda imtihon munosabatila: idoraya maktub // Tarjimon. — 1913. — 16-iyun.
23. Milliy matbuot. "Iqbol" // Tarjimon. — 1914. — 5-mart.
24. Onisa. Ta'ziya teleg'roflari // Tarjimon. — 1914. — 7-oktabr.
25. Milliy maishat. Xo'qanddan // Tarjimon. — 1916. — 4-noyabr.